

FILMONIMLARNING ONOMASTIK BIRLIK SIFATIDAGI LINGVISTIK MAQOMI

Umarova Dilafruz Razzakberdiyevna

E-mail: dilafruz.umarova91@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21434009>

Annotatsiya: Mazkur tezisda filmonimlarning onomastik tizimdagi o'rni va lingvistik maqomi tahlil qilinadi. Filmonim kinoasar nomini bildiruvchi maxsus atoqli ot sifatida qaralib, uning ideonimlar tarkibiga kirishi, nominativ, kommunikativ, estetik, pragmatik va reklama vazifalari yoritiladi. Shuningdek, filmonimlarning kichik formatli matn, kino matnining belgisi hamda boshqa onomastik birliklardan farqli nomlash birligi sifatidagi xususiyatlari izohlanadi. Tadqiqot natijalari filmonimlarning zamonaviy onomastikada mustaqil o'rganilishi zarur bo'lgan lingvistik birliklardan biri ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: onomastika, filmonim, ideonim, atoqli ot, film nomi, kino matni, nominativ funksiya, reklama funksiyasi, kichik formatli matn

РОЛЬ ФИЛЬМОНИМОВ В ОНОМАСТИКЕ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ СТАТУС

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются место фильмонимов в ономастической системе и их лингвистический статус. Фильмоним рассматривается как особый тип имени собственного, обозначающий название кинофильма. В работе освещается принадлежность фильмонимов к разряду идеонимов, а также их номинативная, коммуникативная, эстетическая, прагматическая и рекламная функции. Кроме того, раскрываются особенности фильмонимов как малоформатного текста, знака кинотекста и особой номинативной единицы, отличающейся от других ономастических единиц. Результаты исследования показывают,

что фильмонимы являются одной из значимых лингвистических единиц, требующих самостоятельного изучения в современной ономастике.

Ключевые слова: ономастика, фильмоним, идеоним, имя собственное, название фильма, кинотекст, номинативная функция, рекламная функция, малоформатный текст

THE PLACE OF FILMONYMS IN ONOMASTICS AND THEIR LINGUISTIC STATUS

Abstract: *This thesis examines the place of filmonyms in the onomastic system and their linguistic status. A filmonym is regarded as a special type of proper name denoting the title of a motion picture. The study discusses the inclusion of filmonyms within the category of ideonyms and highlights their nominative, communicative, aesthetic, pragmatic, and advertising functions. It also explains the specific features of filmonyms as small-format texts, signs of cinematic text, and distinctive naming units that differ from other onomastic categories. The findings show that filmonyms represent an important linguistic unit that requires independent investigation within modern onomastics.*

Keywords: *onomastics, filmonym, ideonym, proper name, film title, cinematic text, nominative function, advertising function, small-format text*

Onomastika atoqli otlar tizimini, ularning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Onomastika terminining kelib chiqishi yunon tiliga borib taqaladi: *onomastike* “nom qo‘yish san’ati”, *onomastikos* esa “ismga oid” degan ma’noni bildirib, hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) ma’lum bir til yoki xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasidir [1]. Zamonaviy onomastik tadqiqotlarda bugungi kunda shaxs nomlari bo‘lmish antroponimlar va joy nomlari toponimlardan tashqari inson ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lgan asar

nomlari ham alohida e'tibor markaziga chiqmoqda. Badiiy asarlar, davriy nashrlar, reklama maqsadida yaratilgan nomlar, tijorat kompaniyalari nomlari bilan bir qatorda kinoasar nomlari ham onomastik tadqiqotlar doirasida o'rganilishi mumkin bo'lgan muhim birliklardan biriligini hisobga oladigan bo'lsak kinofilm sarlavhalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda onomastika muhim nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Chunki film nomlari, mohiyatan, nomlash hodisasi sifatida tilning onomastik tizimiga mansub bo'lib, ular orqali film mazmuni, janri, estetik yo'nalishi va kommunikativ maqsadi ifodalanadi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida kinoasar nomlari filmonimlar deb yuritiladi va ular onomastikaning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Rus tadqiqotchisi D. Kudrina filmonimni kinoasar nomlarini bildiruvchi atoqli otlar razryadi sifatida ta'riflar ekan, uning mazmun, badiiy niyat, ixchamlik, qiziqarli va tomoshabin uchun jozibador bo'lish talablarini alohida ko'rsatadi [3]. Filmonim termini ilk bor E.V.Knish ishlarida qo'llangan, keyinchalik esa Y.N.Podemova tadqiqotida ushbu termin onomastik terminologiya tarkibiga kiritilgani qayd etiladi. Filmonim kinoasarni nomlovchi maxsus atoqli otdir. U muayyan filmni boshqa filmlardan ajratadi, uni identifikatsiya qiladi va tomoshabin ongida shu film bilan bog'liq dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Masalan, *Titanic*, *Avatar*, *O'tkan kunlar*, *Suyunchi* kabi nomlar oddiy umumiy ot sifatida emas, balki aniq bir kinoasarni bildiruvchi onomastik birlik sifatida ishlaydi. D.Sirkun filmonimni onomastika obyekti va atoqli otlar qatoriga kiruvchi birlik sifatida belgilaydi va uning fikricha, filmonimlar badiiy asar sarlavhalariga yaqin turadi, chunki ular asarning asosiy g'oyasi, mazmuni va qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi [11] bu esa filmonimlarning atoqli ot sifatidagi maqomi ularning filmni nomlashi va uni boshqa kinoasar nomlaridan ajratib turishi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Onomastik tasnifda inson tafakkuri va ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan asarlar nomi ideonimlar doirasida o'rganiladi. Badiiy asar, qo'shiq, gazeta-jurnal, spektakl va film nomlari ana shu guruhga mansubdir. Filmonimlar ham kino san'ati

mahsuli bo'lgan film nomlarini bildirgani uchun ideonimlar tarkibiga kiritiladi. D.Kudrina hamda D.Sirkun o'z tadqiqotlarida N.V.Podolskaya va E.V.Knish qarashlariga tayanib, filmonimlarning ideonimlar qatoriga kiritilishini qayd etadi [3]. Bu yondashuv filmonimni faqat sarlavha emas, balki ijodiy-madaniy mahsulot nomi sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shu asosda aytish mumkinki, filmonim antroponim yoki toponimdan farqli ravishda real shaxs yoki joyni emas, balki badiiy-estetik mahsulot bo'lgan kinoasarni nomlaydi. Masalan, *Abdullajon* filmonimi shaklan antroponimga o'xshasa-da, onomastik maqomiga ko'ra film nomi sifatida filmonim hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tilshunoslikda adabiy onomastika yoki poetik onomastika deb ataluvchi yangi yo'nalish shakllana boshladi. Bu yo'nalish badiiy adabiyot va san'at asarlarida uchraydigan nomlar, xususan, qahramonlar nomlari, joy nomlari va asar sarlavhalarining ma'no hamda funksiyalarini tahlil qilishga qaratilgan [5]. Mazkur yo'nalishning asosiy maqsadi badiiy nomlarning semantik va estetik yuklamalarini aniqlashdan iborat. Bu borada fransuz olimi Gérard Genette asar nomini matnning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etib, uning o'quvchi e'tiborini tortish va mazmunni yo'naltirish kabi muhim kommunikativ funksiyalarni bajarishini ta'kidlaydi [2; 695-696]. Shuningdek, Vanessa Leonardi sarlavhalarni mustaqil matnlar sifatida baholab, ularning tarkibida doimo uch muhim komponent yozuvchi, kommunikativ funksiya va adresat mavjudligini ko'rsatadi [4 ; 182].

Filmonimning birlamchi vazifasi nominativ vazifadir bo'lib, u filmga nom beradi va uni boshqa kinoasarlardan farqlaydi biroq filmonim faqat nomlash bilan cheklanmaydi: u tomoshabinga film haqida dastlabki axborot beradi, qiziqish uyg'otadi, reklama vazifasini bajaradi va filmni tanlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. E.V.Knish filmonimlarning uch asosiy funksiyasini ajratadi: nominativ, kommunikativ va estetik. Nominativ funksiya filmonimning onomastik maydon elementi ekanini bildirsa, kommunikativ funksiya film nomi orqali tomoshabinga

ma'lum axborot yetkazilishini ko'rsatadi; estetik funksiya esa film nomida estetik munosabat mavjudligini ifodalaydi [3]. Koreys filmlari nomlari haqidagi tadqiqotlarda ham film sarlavhasi faqat qisqa axborot emas, balki "kommersiya yurishi" sifatida baholanadi. Mualliflar film muvaffaqiyati ko'pincha uning nomiga bog'liq bo'lishi, samarali nom tomoshabin e'tiborini jalb qilishi va marketing natijasiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar [10]. Shunday qilib, filmonim onomastik birlik sifatida nomlash vazifasini, kommunikativ birlik sifatida axborot yetkazish vazifasini, pragmatik birlik sifatida esa tomoshabinga ta'sir o'tkazish va reklama vazifasini bajaradi. Filmonim hajman qisqa ammo mazmunan zich birlikdir. Unda filmning asosiy mavzusi, qahramoni, voqea makoni, ziddiyat nuqtasi yoki g'oyaviy markazi ixcham shaklda ifodalanishi mumkin. Shu sababli filmonimni kichik formatli matn sifatida talqin qilish mumkin. D.Sirkun sarlavha va matn o'zaro yagona kontekstni hosil qilishini, filmonim esa kinoasarning asosiy g'oyasini ifodalagan holda uning sarlavhasi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, u film ham badiiy matn kabi mazmuniy tugallikka ega ekanini, film nomi esa uning mohiyatini aks ettirishi mumkinligini ko'rsatadi [11]. Selina va Pak filmonimni kino matnining belgisi sifatida ko'rib, uni lingvosemiotik tahlil doirasida sintaktika, semantika va pragmatika aspektlarida o'rganishni taklif qiladi. Ularning yondashuvida filmonim shunchaki nom emas, balki kino matni bilan bog'langan belgi sifatida qaraladi [9]. Masalan, *Titanic* bir so'zli filmonim bo'lsa-da, tarixiy voqea, fojia va sevgi syujetini anglatadi. *Sen yetim emassan* esa gap shaklidagi filmonim bo'lib, filmning insonparvarlik va ruhiy dalda g'oyasini nomning o'zida mujassamlashtiradi. Bu holat filmonimlarning kichik formatli matn sifatida keng semantik yukni ko'tara olishini ko'rsatadi.

Filmonimlar boshqa onomastik birliklardan nomlanayotgan obyektining tabiati bilan farqlanadi. Antroponim shaxsni, toponim joyni, etnonim xalq yoki etnik guruhni, pragmatonim mahsulot yoki brendni bildiradi. Filmonim esa kinoasar nomini bildiradi. Demak, uning referenti real shaxs yoki makon emas, balki badiiy-

estetik kino mahsulotidir. Onomastika haqidagi umumiy manbalarda atoqli otlar antroponim, toponim, etnonim, zoonim, gidronim, teonim kabi guruhlarga ajratilishi ko'rsatiladi. Bu tasnif filmonimlarning onomastik tizimdagi alohida o'rnini aniqlashga yordam beradi: ular shaxs yoki joy nomlari emas, balki ijodiy asar nomlari doirasida o'rganiladi [7; 229]. Selina va Pak atoqli otlar belgi sifatida obyekt va nomni birlashtirishini, ism denotativ hamda konnotativ komponentlarga ega ekanini ta'kidlaydi. Bu fikr filmonimlarga ham mos keladi: film nomi bir tomondan aniq kinoasarni bildiradi, ikkinchi tomondan esa madaniy, estetik, janriy va assotsiativ ma'nolarni uyg'otadi [9; 66]. Rus onomastikasida atoqli otlarning nazariy jihatdan o'rganilishida A.V.Superanskaya qarashlari alohida o'rin tutadi. U 1973-yilda "Atoqli otlarning umumiy nazariyasi" nomli yirik tadqiqotini e'lon qilgan hamda atoqli otlarni obyekt nomi bilan bog'liqligi, onimning paydo bo'lish uslubi, nomlanish tarzi, etimologiyasi, til-nutq dixotomiyasi bilan bog'liqligi, uslubiy va estetik xususiyatlariga ko'ra tavsiflagan. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib rus onomastikasi turli nomlash obyektlarini tizimli ravishda o'rganishga yo'naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar markaziga aylandi. Bugungi kunda ushbu sohada insonning madaniy va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan har xil nomlar badiiy asarlar, ilmiy matnlar, ommaviy axborot vositalarining sarlavhalari, san'at namunalari, kino va televideniye mahsulotlari nomlari maxsus tahlil obyekti sifatida o'rganilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham onomastika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, uslubshunoslik, nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik, areal lingvistika, lingvostatistika kabi yo'nalishlar bilan bir qatorda o'zbek onomastikasi ham yangi ilmiy soha sifatida rivojlandi. O'zbek tilshunosligida nomshunoslik va atoqli otlarning yasalishi, ismlarning lingvistik, etimologik hamda ijtimoiy xususiyatlari G'.Sattorov, S.Rahimov, Z.Do'simov, T.Rahmatov, N.Oxunov, S.Qorayev, Y.Xo'jamberdiyev, L.Karimova, S.Naimov,

T.Nafasov, R.Xudoyberganov hamda Z.M.Abdullayev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari orqali tahlil qilingan. Natijada o'zbek nomshunosligida antroponimika, toponimika, etnonimika kabi sohalar keng rivoj topdi. Atoqli otlarga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar E. Begmatov nomi bilan bog'liq. U "O'zbek ismlari imlosi", "O'zbek ismlari ma'nosi" kabi asarlari orqali o'zbek antroponimiyasiga alohida e'tibor qaratdi. Bunda ismlarning kelib chiqishi, yozilishi va talqini chuqur o'rganildi. So'nggi yillarda esa o'zbek tilshunosligida onomastik birliklarning badiiy asardagi lingvopoetik xususiyatlarini o'rganuvchi onomapoetika yo'nalishida muayyan tadqiqotlar yuzaga keldi, poetonimlarning izohli lug'atlari yaratildi. Bugungi kunda onomapoetika o'z tahlil metodlari va tadqiq obyektiga ega bo'lgan, tilshunoslikning leksikologiya, semiotika, poetika, matn lingvistikasi sohalar bilan aloqador alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, filmonimlar onomastik tizimda muhim o'rin tutuvchi maxsus lingvistik birliklardir. Ular atoqli otlarning alohida turi sifatida kinoasarni nomlaydi, uni boshqa filmlardan ajratadi va tomoshabin ongida film haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Ideonimlar tarkibiga mansub bo'lgani uchun filmonimlar inson ijodiy faoliyati mahsuli bo'lgan kinoasar nomlarini bildiradi. Filmonimlarning lingvistik maqomi ularning ko'p funksiyali tabiatida namoyon bo'ladi: ular nominativ, kommunikativ, estetik, pragmatik va reklama vazifalarini bajaradi. Bundan tashqari, filmonimlar kichik formatli matn sifatida film mazmuni va g'oyasini ixcham shaklda ifodalash imkoniga ega. Shu sababli filmonimlarni onomastik birlik sifatida o'rganish nomshunoslik, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvosemiotika va kino diskursi tadqiqotlari uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 60.

2. Genette G., Crampé B. Structure and Functions of the Title in Literature // Critical Inquiry. – 1988. – Vol. 14. – № 4. – P. 692–720.
3. Кудрина Д. Д. Фильмоним как объект лингвистического исследования. – 2019.
4. Leonardi V. Translating Film Titles: Linguistic Skills, Cultural Awareness or Marketing Strategies? // Language, Communication and Social Environment. – 2011. – № 9. – P. 180–201.
5. Nordquist R. Onomastics Explained // ThoughtCo. – 2019. – URL: <https://www.thoughtco.com/onomastics-names-term-1691450>
6. Oduola L., Omolara O. A. A Socio-Onomastics Study of the Characters in Five Selected Movies of Tunde Kelani // Journal of Humanities and Social Science. – 2025.
7. Razzakberdiyevna U. D. Filmonimlar lingvistik fenomen sifatida: film nomlarining tarjima muammolari // O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2025. – B. 227–230.
8. Umarova D. Study of Onomastic Units in Uzbek Linguistics and Analysis with Other Turkish Languages // Conferences. – 2025. – Vol. 1. – № 1.
9. Селина М. С., Пак С. М. Фильмоним как объект сравнительного лингвосемиотического исследования // Язык как структура и дискурсивная практика. – 2024. – № 4 (7). – С. 63–72.
10. Тен А., Филатова А., Шин Н. Названия корейских кинофильмов: характеристика и проблемы перевода // Сборник научных статей по корееведению студентов вузов СНГ. – С. 100.
11. Цыркун Д. И. Лингвистические особенности наименований английских и американских кинофильмов. – 2020.